GOSPITAL MAKTABNING AMBULATOR SHAROITIDA TIL O‘RGANISH KOMPETENSIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna,
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi Ambulator filiali pedagog hodim, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gospital maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasallik sharoitida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning psixologik, pedagogik va ijtimoiy xususiyatlari inobatga olingan holda, til o‘rganish jarayonining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, individual yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar va motivatsion omillarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari gospital ta’lim tizimida til o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *gospital ta’lim, til kompetensiyasi, individual yondashuv, pedagogik texnologiyalar, motivatsiya.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida har bir o‘quvchining sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, gospital maktablar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular uzoq muddat davolanish jarayonida bo‘lgan bolalarga uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarning sog‘lig‘i, psixologik holati va individual ehtiyojlari asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Til kompetensiyasi esa shaxsning kommunikativ faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni shakllantirish gospital ta’lim sharoitida murakkab, ammo zarur jarayon hisoblanadi. Chunki kasallik tufayli yuzaga keladigan stress, charchoq va motivatsiya pasayishi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Gospital maktablarida o‘quvchilarning ta’lim olish imkoniyatlarini maksimal darajada ta’minlash, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ kompetentsiyaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Bu maktablar, odatda, maxsus ta’lim sharoitlari, o‘quvchilarning kasalliklari va davolanish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qitish jarayoni va metodlari alohida yondashuvni talab qiladi[4]. O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda, ayniqsa, ingliz tili kabi chet tillarini o‘rgatish o‘ta muhimdir. Komunikativ kompetentsiya, o‘quvchilarga til orqali o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqotda bo‘lish va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini beradi. Gospital maktabda bu kompetentsiya rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri gibrid o‘qitish metodikasining joriy etilishidir.

Nazariy metodologik asos. Komunikativ kompetentsiya tilni o‘rganish jarayonida shaxsning til va muloqot qobiliyatini rivojlantiradigan asosiysi hisoblanadi. “Mehrli maktab”ning Ambulatop filialidada o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishda, til o‘rgatishning faqat grammatika va lug‘at boyligini oshirishdan iborat emas, balki o‘quvchilarga tilni aniq va to‘g‘ri ishlatish, suhbatlarni boshqarish, fikrlarni ifodalash va muloqotda bo‘lish kabi ko‘nikmalarni ham o‘rgatish zarur. Bu o‘quvchilarning jamiyatga integratsiyasini ta’minlashga yordam beradi[2]. O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiya rivojlantirishda interaktiv metodlar, masalan, ro‘yxatga olish, rolli o‘yinlar, suhbatlar va guruh muhokamalari alohida o‘rin tutadi. Bu metodlar o‘quvchilarga real hayotdagi muloqotda o‘zlarini yanada ishonchli his qilishlariga yordam beradi. Ingliz tili, rus tili darslarida, ayniqsa, o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda kommunikativ metodlar asosiy o‘rin tutadi. Ushbu metodlar tilni nafaqat nazariy o‘rganishga, balki uni amalda qo‘llashga yordam beradi. Davolanishning kunduzgi bo‘lim davrida bo‘lgan o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini

shakllantirish jarayoni ularning kasalliklari va davolanish sharoitlariga bog‘liq holda o‘ziga xosdir[4]. Biroq, gospital ta’limi uchun samarali metodlar va yondashuvlar joriy etilishi, o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Gibrid o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi o‘quvchilarga o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bu metodika, an’anaviy darslarga raqamli va interaktiv elementlarni kiritish orqali o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim olish imkonini yaratadi. da gibrid o‘qitish metodikasini qo‘llash, ayniqsa, o‘quvchilarning vaqt va joydan qat’i nazar ta’lim olishlariga imkon beradi.“Mehrli maktab”ning Ambulatop filiali shtatida asosiy “Mehrli maktab”ning ingliz tili fan oqituvchilari onlayn platformalar orqali darslarning tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilar o‘z vaqtida darslarga qatnashishlari va mashqlarni bajarishlari orqali til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Shuningdek, masofaviy o‘qish va o‘quv materiallari bilan tanishish imkoniyatlari o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz tili o‘qitish mobaynida gospital ta’lim o‘quvchilarning komunikativ kompetentsiyasini rivojlantiririb borish muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilini o‘rgatishda, o‘quvchilarga nafaqat grammatikani o‘rganish, balki ushbu til orqali fikrlarini aniq ifodalash, boshqalar bilan samarali muloqotda bo‘lish, fikr almashish va muammolarni yechish kabi ko‘nikmalarni ham o‘rgatish zarur. Gospital maktablarda ingliz tili o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli interaktiv usullar qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ularga ingliz tilida suhbatlar o‘tkazish, debatlarga jalb qilish, shuningdek, ta’lim tilidan boshqa tillarda kichik hikoyalar yoki dialoglar yozishga undash bu kompetentsiyani rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Ambulator (kunduzgi) sharoitning o‘ziga xosligi — bola davolanish bilan birga qisqa vaqtli, uzilib-uzilib o‘qiydi. Shuning uchun hayotiy vaziyatlar orqali ko‘rsatish eng to‘g‘ri yondashuv.

1. Keys: Tez charchaydigan o‘quvchi (individual mini-dars)

Vaziyat: OLL tashxisi qo‘yilgan 7-sinf o‘quvchisi davolanish davrida kunduzgi statsionarga keladi. 2–3 soatdan keyin charchaydi, diqqat pasayadi.

Muammo: Uzoq matnlarni o‘qiy olmaydi, yangi so‘zlarni eslab qolish qiyin.

Yechim (til o‘rganishda): Dars 10–15 daqiqalik bloklarga bo‘linadi. Har blokda 3–4 ta yangi so‘z. Vizual kartochkalar (rasm va so‘z) ishlatiladi.

O‘yin shakli: “Top va so‘zla”

Natija: O‘quvchi charchamasdan, kichik hajmda bo‘lsa ham, muntazam til boyligini oshiradi.

2. Keys: Motivatsiyasi pasaygan o‘quvchi

Vaziyat: Thalassemiya (irsiy genetik) kasallik bilan kasallangan 8-sinf o‘quvchisi uzoq davolanish tufayli ta’limda tengdoshlaridan ortda qolganini his qiladi.

Muammo: “Baribir yetib ololmayman” degan fikr sabab darsga qiziqmaydi.

Yechim: Til darsini hayotga yaqin mavzularda tashkil qilish (masalan: “Shifokor bilan suhbat”, “Dorixona dialogi”)

Rol o‘ynash (role-play)

Kichik muvaffaqiyatlarni darhol baholash

Misol mashq:

— “I feel pain here”

— “You should take medicine”

Natija: O‘quvchi tilni “baho uchun emas, hayot uchun” o‘rganayotganini his qiladi.

3. Keys: Kimyo terapiya muolajalarini doimiy olishi natijasida darslarga muntazam qatnasha olmaydigan o‘quvchi

Vaziyat: Bola ba’zi kunlar keladi, ba’zida davolanish sabab kelolmaydi.

Muammo: Darslar uzilib qoladi, bilimda bo‘shliq paydo bo‘ladi.

Yechim: Mikro-mavzular asosida o‘qitish (har dars alohida tugallangan) Audio/video materiallar berish. Oddiy “uy vazifa emas, qayta aloqa” topshiriqlari

Misol: Bugungi mavzu: “5 ta fe’l”

Keyingi dars: shu fe’llar bilan gap tuzish

Natija: O‘quvchi darsni o‘tkazib yuborsa ham, butun tizimdan uzilib qolmaydi.

4. Keys: Psixologik noqulaylik (yopiq, tortinchoq bola)

Vaziyat: Ba’zi bolalar kasalligi sabab o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasaygan(qobig‘ida).

Muammo: Gapirishdan qo‘rqadi, xato qilishdan uyaladi.

Yechim: Individual yoki juftlikda ishlash. “Xato qilish mumkin” muhitini yaratish. Oddiy savol-javobdan boshlash

Misol dialog:

— What is your name?

— My name is Ali

— How do you feel today?

Natija: Sekin-asta kommunikativ faollik oshadi.

5. Holat: Raqamli vositalardan foydalanish

Vaziyat: Bola ko‘p vaqtini palatada o‘tkazadi.

Yechim:Telefon orqali qisqa til ilovalari, Audio tinglash (oddiy dialoglar). 5 daqiqalik “kunlik til mashqi”

Misol: Har kuni 5 ta yangi so‘z ,ovozli takrorlash

Natija: Til o‘rganish uzluksiz davom etadi, hatto sinfdan tashqarida ham.

Xulosa

Ambulator (kunduzgi) gospital ta’lim sharoitida til o‘rganish jarayoni o‘quvchilarning sog‘lig‘i, psixologik holati va darsga qatnashish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli ta’lim jarayonini kichik hajmli, moslashuvchan va individual yondashuv asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan kommunikativ metodlar, o‘yin texnologiyalari hamda raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning til kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Gospital maktablarda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini shakllantirishda kommunikativ kompetentsiyaning roli beqiyosdir. O‘quvchilarning jamiyatga integratsiyasini ta’minlash, o‘z fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashda kommunikativ kompetentsiya muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Gibrid o‘qitish metodikasi va interaktiv yondashuvlar yordamida o‘quvchilar o‘z til ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishi mumkin. Ingliz tili o‘qitishda o‘quvchilarni tilni amalda qo‘llashga undash, ularning kommunikativ kompetentsiyasini oshirishda alohida o‘rin tutadi. Kelajakda gospital maktablarda o‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni joriy etish kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva N.M. “Gospital pedagogika: kasalxona sharoitida bolalar bilan ishlash metodikasi”. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-uslubiy jurnali, 2024, №1, 45-49-b.
2. Avalos, L. (2023). *Hospital Pedagogy: A Systematic Review.* Journal of
3. Educational Research, 45(3), P. 215-230.
4. Uralov M. D. “Gibrid o‘qitish metodikasi asosida gospital maktab
5. o‘quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish” “Ilm-fan va innovatsiya 2024” xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya, O`zDJTU, 25.05.2024, Toshkent, B. 232-236.
6. Pulatova P.M “Maxsus pedagogika”. -T.: Fan va texnologiyalari, 2014